

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA BOLALARDА ELEMENTAR MATEMATIK TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHDA TANGRAM USULIDAN FOYDALANISH

N.O.Saidova

FarDU, o'qituvchi

T.S.Axmedova

FarDU, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10135310>

Bugungi rivojlanib borayotgan zamonda mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, o'sib borayotgan yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy ravishda e'tibor qaratib kelinmoqda.


Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham uzluksiz ta'larning birlamchi eng asosiy bo'g'ini maktabgacha ta'limgiz tizimini e'tibordan chetda qoldirmadi.

"Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'limgiz-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'limgiz-tarbiya – biz uchun hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir", - degan edi prezidentimiz. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan oldin biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'limgiz tizimidan boshlanadi. Shunga binoan:

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'limgiz tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limgiz vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga binoan bu sohada yangi tizim yaratildi.

Bu soha bo'yicha ko'plab ishlar rejalshtirilib, amalda tatbiq etilib kelinmoqda. Shu qatorda zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limgiz yoshidagi bolalarni bilimlarini asosan o'zin orqali shakllantiriladi. Ulardan kutilayotgan maqsadlar uchun olib borilayotgan mashg'ulotlar qiziqarli, sodda va tushinarli bo'lishi lozim. Mashg'ulotlarga kreativ yondashish, bir xillikdan qochgan holatda tarbiyachi o'z ustida doimiy ishlab zamon talabiga javob beraoladigan kadrlarni tayyorlashi lozim. Bolalar uchun konstruktiv fikrlash, mantiq, hayol va aql, geometrik jumboq o'yinlari juda foydali sanaladi. Ushbu o'yinlardan biri qadimgi TANGRAMdir.



Tangram bu matematika mashg'ulotlarida foydalanish uchun yaratilgan qadimgi Xitoy jumboqlaridan biri. Tangramni oddiy sharoitda tayyorlash osonligi hamda shakllardan iboratligi unga qiziqishni oshiradi. Uni tayyorlashda 7 ta shakldan foydalaniлади. Bular: 2 ta katta uchburchak, 1 ta о`rtacha kattalikdagi uchburchak, 2 ta kichik kattalikdagi uchburchak, 1 ta parallelogram va 1 ta kvadrat. Bolalar bu shakllardan foydalangan holda ularni birlashtirib katta kvadrat yasashlari lozim.

Tangram jumbog'i matematikani ham qiziqarli, ham konseptsiyani kuchaytirish uchun foydalilanidigan manipulyator hisoblanadi. Bunday boshqotirmalar muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, bundan tashqari topshiriqlarni rag'batlantirish imkoniyatini ham yaratadi. Bu jumboqning o'ziga xos xususiyatlaridan biri geomtrik shakllarning bir-biridan farqlash hamda ularning hajmiga qarab ajratilishi ham bolalarning fikrlash doirasini kengaytiradi, bundan tashqari ularni turli ranglar orqali ifodalash ham tasavvurni boyitishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun tangram o'yini maktabga tayyorgarlik ko'rish uchun ajoyib saboqdir. O'yindagi shakllar orqali odamlar, hayvonlar, qushlar, raqamlar va shu singari kompozitsiyani jamlash orqali bolalarda dunyoqarishi, fikrlashi kengayib boradi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarda nozik vosita ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy vazifadir, chunki u to'g'ri va izchil nutqni shakllantiradi. Ammo nozik vosita qobiliyatları bilan bir qatorda, bolada mantiqiy, fazoviy va konstruktiv fikrlashni va tezkor aqlni rivojlantirishi kerak. Bu o'yin bolalarda qoidalar bo'yicha o'ynash va ko'rsatmalarga rioya qilish, visual-majoziy fikrlash, tasavvur, e'tibor, rang, o'lcham va shaklni tushunish, idrok etish, kombinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu o'zin uchun mashqlar va topshiriqlar natijasida bola oddiy tasvirlarni tahlil qilishni, ulardagagi geometrik shakllarni ajratib ko'rsatishni, butun obyektni visual ravishda qismlarga ajratishni va aksincha, elementlardan berilgan modelni tuzishni o'rganadi.

O'yining mohiyati mozaika prinsipiga ko'ra ushbu elementlardan barcha turdag'i raqamlarni yig'ishdir. Hammasi bo'lib 7000 dan ortiq turli xil kombinatsiyalar mavjud. Ulardan eng keng tarqalgani hayvonlar va inson figuralaridir.

Xulosa qilib aytganda, bolalardagi matematik bilimlarni rivojlantirish dunyoni chuqurroq hamda to'laroq o'rghanishga, anglab yetishga imkoniyat beradi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli bolalarda turlichalari bo'ladi. Uning shakllanishida muhim e'tibor doimiy mashq qilishda ekanligini ko'rsatadi, bu o'z navbatida tarbiyachi-pedagoglarning oldiga muhim vazifa qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shu singari keng qamrovli o'yinlarni bolalar mashg'ulotlarida ko'paytirish maqsaddan yiroq bo'lmaydi.

### References:

1. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori. 2018 yil 5 iyun
2. Saidova, N. (2022). Бошланғич синф ўқитувчининг ахборот- коммуникатив компетентлигини ривожланиш компонентлар. Science and innovation, 1(B6), 865-868.
3. Сайдова, Н. О., & Йигиталиева, М. Ш. (2022). Ахборот-коммуникатив таълим мухитининг таркибий қисмлари. Miasto Przyszłości, 28, 395-398.
4. Сайдова, Н. О. (2022, November). Бошланғич синф ўқитувчининг компетентлигини таркибий қисмлари. in international conferences (Vol. 1, No. 10, pp. 260-263).
5. Сайдова, Н. О., & Рустамова, Ш. Ш. К. (2021). Мактабгача ёшдаги болаларда математик тушунчаларни шакллантиришнинг замонавий технологиялари. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 2), 290-293.
6. Saidova, N. O. (2021). Maktabgacha ta'lim muassasasining har xil yosh guruhalrida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish. Academic research in educational sciences, 2(11), 1612-1614.
7. Saidova, N. O., & Yigitaliyeva, M. S. (2022). Maktab yoshidagi bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish. Results of National Scientific Research International Journal, 1(3), 53-59.
8. Saidova, N. (2022). Bolajak boshlangich sinf oqituvchilar kompetentligini oshirishda axborot texnologiyalarining orni. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(22), 4-7.
9. Olimovna, S. N. (2022). Formation of quantitative representations in the secondary groups in pre-school educational organizations. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(01), 58-60.
10. Olimovna S. N. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir yosh guruhida tevarak atrofni idrok etishning o 'ziga xos xususiyatlari. Results of National Scientific Research International Journal, 1(1), 115- 119